

ISSN: 3030-3001

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА



Research Science and
Innovation House

НАША ИНДЕКСАЦИЯ



SJIF 2023: 3.019, 2024: 5.444
ResearchBib Impact factor: 11.79

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

Том 3, Выпуск 10, 30 Ноябрь

Научный журнал «МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА»:

30.11.2025.

В данном сборнике опубликованы статьи, принятые на научную журнал «Медицина, Педагогика и Технология: Теория и Практика» 2025 г., Выпуск 3, Часть 10.

Всем статьям журнала присваивался уникальный номер DOI, который индексировался в международных научных базах данных **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar**.

Диссертациями официально признаются статьи, опубликованные в национальных журналах из списка журналов, рекомендованных ВАК для публикации основных научных результатов диссертаций.

Основание: Страница 3 перечня научных изданий, рекомендованных для публикации основных научных результатов диссертаций ВАК Республики Узбекистан. – Ташкент: 2019. – 160 с.

Материалы журнал могут использовать профессора, преподаватели, независимые исследователи, докторанты, магистры, студенты, преподаватели лицеев и школ, научные работники и все, кто интересуется наукой.

Напоминание! Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр, отчетов, данных и правильность цитат в научных статьях, включенных в сборник материалов конференции.



ООО «ДОМ ИССЛЕДОВАНИЙ
НАУКИ И ИННОВАЦИЙ»



МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

Том 3, Выпуск 10, 30 Ноябрь

РЕДАКЦИЯ

Главный редактор: Эшкараев Садридин Чориевич – заведующий кафедрой медицины и естественных наук Термезского университета экономики и сервиса, доктор философских наук по химии, доцент, Термез, Узбекистан.

Ответственный секретарь: Бобоёров Сардор Учкун ўғли– магистрант Термезского филиала Ташкентской медицинской академии.

Подготовлен: Эшкораев Самариддин Садридин ўғли магистрант Термезского инженерно-технологического института.

РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor, REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

ISSN: 3030-3001

Том 3, Выпуск 10, 30 Ноябрь

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

Prof.Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and Technology(IIST)

Prof. Yogesh C. Sharma - D.Sc., FRSC, FBRS,FIAPS;FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

Professor Indra Mani Mishra -Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

Eshkaraev Sadridin Chorievich - associate professor of the Department of Analytical Chemistry of Termiz State University, Doctor of Philosophy Chemical Science, Termez, Uzbekistan. esadir_74@rambler.ru

Kosimboy P. Kabulov - Editor of Philosophical sciences Urgench State University, doctor of philosophy in Philosophical sciences (PhD), associate professor Theory of building a democratic society in Uzbekistan

Rakhimova. Z. Muminakhon - Editor of Philosophical sciences, Urgench State University, doctor of philosophy in Philosophical sciences (PhD), associate professor social work and philosophy

Umida E. Doschanova - Editor of Philosophical sciences Urgench State University, associate professor Theory of building a democratic society in Uzbekistan

Dilnoza A. Sadanova - Editor of Philosophical sciences Urgench State University, doctor of philosophy in Philosophical sciences (PhD), associate professor Theory of building a democratic society in Uzbekistan

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

ISSN: 3030-3001

Том 3, Выпуск 10, 30 Ноябрь

Iroda G. Abdullaeva - Editor of Philosophical sciences Urgench State University, doctor of philosophy in Philosophical sciences (PhD), associate professor Theory of building a democratic society in Uzbekistan

Muborak. M. Matyakubova - Editor of Historical sciences Urgench State University, doctor of philosophy in History (PhD), associate professor History

Matkarimova Marifat Ro'zimboyevna, Doctor of Philosophy in Agricultural Sciences, Department of Biology, Faculty of Natural and Agricultural Sciences, Urganch State University, PhD

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH (ASAKABANK MISOLIDA)

Umirova Sakinabonu Dilshod qizi

Bank-moliya akademiyasi 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, “Asakabank” ATB misolida risklarning shakllanish omillari, ularning bank barqarorligiga ta’siri hamda boshqaruv mexanizmlari chuqur o‘rganilgan. Tadqiqot davomida kredit, likvidlik, foiz va operatsion risklar dinamikasi tahlil qilinib, risklarni kamaytirish uchun raqamli texnologiyalar, Basel III standartlari, Value-at-Risk modeli va stress-test usullarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Natijada, risklarni boshqarishning kompleks modeli ishlab chiqilib, bankning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Tijorat banki, risk-menejment, kredit riski, likvidlik riski, kapital yetarliligi, Basel III, Asakabank, stress-test, Value-at-Risk, raqamli transformatsiya.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyati murakkab moliyaviy muhitda amalga oshiriladi. Banklarning asosiy vazifasi - moliyaviy vositachilikni samarali tashkil etish bo‘lib, bu jarayonda ular turli turdagi risklarga duch keladi. Risklarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimi bank faoliyatining barqarorligini ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston bank tizimida so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari tezlashgan bo‘lsa-da, risklarni kompleks boshqarish tizimi hali to‘liq shakllanmagan. Xususan, Asakabank ATB misolida kredit va likvidlik risklarining ortishi, kapital yetarliligining pasayishi hamda ichki nazorat mexanizmlarining samarasizligi kuzatilmoqda. Shu bois, risk-menejment tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

Adabiyotlar sharxi

Risk-menejment nazariyasi bo'yicha xorijiy olimlardan F. Nayt riskni "o'lchanadigan noaniqlik" deb izohlaydi. E. Altman (1968) ishlab chiqqan Z-score modeli bankrotlik xavfini baholashda keng qo'llaniladi. V. Acharya va L. Pedersen (2005) likvidlik riskining aktivlar narxiga ta'sirini empirik jihatdan isbotlaganlar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar N. Jumayev, B. Berdiyarov, M. Maxmudova, N. Karimovlar bank risklarini boshqarish bo'yicha milliy yondashuvlarni ishlab chiqqan. Ularning tadqiqotlarida risklarni kamaytirishda kapital yetariligi, raqamli monitoring tizimlari va stress-test tahlilining ahamiyati ta'kidlangan.

Xalqaro amaliyotda Basel III standartlari bank kapitali, likvidligi va barqarorligini ta'minlashda asosiy mezon sifatida qo'llaniladi. Asakabank tajribasida esa bu yondashuvlarning ayrim elementlari joriy etilgan bo'lsa-da, kompleks risk monitoring tizimi yetarli darajada shakllanmagan.

Asosiy qism

Bank faoliyatidagi risk - bu foyda kutilgan natijadan og'ish ehtimoli bilan tavsiflanadigan noaniqlikdir. Risklarni boshqarish tizimi bank aktiv va passivlarini muvofiqlashtirish, moliyaviy barqarorlikni saqlash hamda potentsial zararlarni minimallashtirishni ko'zlaydi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida bank risklarini boshqarish tizimi to'g'risida xulosalarni shakllantirishga harakat qildik. Bank risklarini boshqarish tizimi – bu bank faoliyatining noaniqlik sharoitida ijobiy moliyaviy natijalarga erishish uchun bank xodimining usul va metodlarni qo'llagan holdagi majmui deb qarash mumkin. Shuningdek, bo'lishi mumkin bo'lgan risklarni bashoratlash va uning salbiy ta'sirini oldini olishga qaratilgan choralarni amalga oshirishni o'zida aks ettiradi. Mazkur tizim turli mezonlar bilan ifodalanishi lozim. Biz bank risklarining turiga binoan ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- kredit riskini boshqarish;
- balanslanmagan likvidlik riskni boshqarish;
- foiz riskni boshqarish;
- operatsion riskni boshqarish.

Qayd etib o'tilgan risklarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, unga ko'ra banklar darajasida risklarni boshqarish, moliyaviy markazlar

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

darajasida va mijozlar, bank mahsulotlari miqyosida risklarni boshqarish kabilarga ajratiladi. Keltirilgan mezonlar doirasida bank risklarini boshqarish elementlardan tashkil topishi mumkin: texnologiyasi quyidagi

- riskni minimallashtirishga qaratilgan bank faoliyati strategiyasini tanlash;
- riskni yuzaga kelishini kuzatish tizimini ishlab chiqish;
- bankni risklardan himoya etish tizimini tanlash.

Bank faoliyatida strategiyani tanlash bank xizmatlari bozori va alohida segmentlari xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. O‘z navbatida, yangi xizmatlarni yangi mijozlar bozoriga olib chiqib sotish strategiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Riskni minimallashtirish tizimi uni aniqlash va baholash, monitoring qilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Bankni riskdan himoya qilish joriy holatda riskni boshqarish va uni minimallashtirish metodlari bilan ifodalanadi. Riskni joriy boshqarish ko‘rsatkichlarni kritik nuqtasidan uzoqlashtirishga qaratilgan bank operatsiyalar bo‘yicha tezkor qarorlarni qabul qilish bilan amalga oshiriladi.

Risklarni boshqarish jarayoni to‘rt bosqichdan iborat: riskni aniqlash, baholash, kamaytirish va monitoring qilish. Basel III yondashuvida esa bu jarayon kapital yetarliligi, likvidlik koeffitsienti va stress-test natijalariga asoslanadi.

Risklarni boshqarish xavflarni aniqlash, baholash, nazorat qilish va minimallashtirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir. Uning maqsadi riskni butunlay yo‘qotish emas, balki uni foyda bilan muvozanatlashtirish, ya’ni “qabul qilinadigan risk” doirasida saqlashdir.

Banklarda risklarni boshqarish usullari turli tamoyillar, vositalar va mexanizmlarga asoslanadi. Ularni iqtisodiy mohiyatiga, ta’sir yo‘nalishiga va boshqaruv darajasiga qarab quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:


Bu usullar bankning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ular riskni makro darajada boshqarishni nazarda tutadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь



1-rasm. Risklarni boshqarishning strategik usullari¹

Bank faoliyatida risklarni boshqarishning strategik usullari - bu uzoq muddatli istiqbolda bankning moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va foydaliligini saqlab qolish maqsadida qo'llaniladigan kompleks chora-tadbirlar tizimidir. Strategik yondashuv risklarni faqat qisqa muddatli zararlarning oldini olish vositasi sifatida emas, balki bankning barqaror rivojlanish modeli sifatida ko'radi. Shu bois strategik risk boshqaruvi bank siyosatining, korporativ boshqaruv tizimining va kapital rejalashtirish mexanizmlarining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bank tizimida strategik yondashuvning asosiy maqsadi – xavf va daromad o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlash, ya'ni riskni butunlay bartaraf etish emas, balki uni qabul qilinadigan darajada saqlab qolishdir. Shu bilan birga, bu usullar bankning faoliyat yo'nalishlari, portfel tuzilmasi va tashqi iqtisodiy muhit o'zgarishlariga mos ravishda doimiy takomillashtirilib boriladi.

Tijorat banklari faoliyatida uchraydigan asosiy risklar - kredit riski, likvidlik riski, operatsion va foiz riski bo'lib, ularning barchasi bir-biri bilan o'zaro

¹ Muallif ishlanmasi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

bog‘liqdir. Kredit riskining oshishi kapital yetarliligini kamaytiradi, likvidlik riski esa to‘lovga qobiliyatsizlik xavfini kuchaytiradi.

2024-yil yakunlari bo‘yicha “Asaka” ATB kredit portfeli tarmoqlar kesimida diversifikatsiya tamoyiliga asoslangan holda shakllantirilgan. Kredit resurslarining asosiy qismi, ya’ni 61 foizi sanoat sohasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu bankning iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratayotganini ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi (9%) va qurilish (8%) yo‘nalishlariga ajratilgan mablag‘lar esa ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va investitsion barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan.

1-jadval

“Asaka” ATB kredit portfelining tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti²
(2024-yil holatiga)

№	Tarmoq nomi	Ulush i, %	Izoh
1	Sanoat	61	Asosiy ulush sanoat ishlab chiqarishi, energetika va avtomobilsozlik loyihalariga to‘g‘ri keladi.
2	Qishloq xo‘jaligi	9	Agrosanoat klasterlari, issiqxona xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo‘naltirilgan.
3	Qurilish sohasi	8	Uy-joy, infratuzilma va ishlab chiqarish binolari qurilish loyihalarini moliyalashtirishga qaratilgan.

² <https://piamg.uz/uz/blog/show/analiz-bankovskogo-sektora-za-ii-kvartal-2022-goda>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

4	Transport va kommunikatsiya	5	Logistika, avtomobil yo'llari va axborot kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirishni moliyalashtiradi.
5	Savdo sohasi	7	Chakana savdo, xizmat ko'rsatish va kichik biznes subyektlarini kreditlash.
6	Boshqa sohalar	10	Ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, axborot texnologiyalari va ijtimoiy loyihalar yo'nalishlari.
Jami	-	100%	Kredit portfeli diversifikatsiyalashgan, risklar tarmoqlar bo'yicha yoyilgan.

Shuningdek, transport va kommunikatsiya (5%) hamda savdo sohalari (7%) uchun taqdim etilgan kreditlar bankning kichik biznes va xizmatlar sektoridagi faolligini ifodalaydi. Ijtimoiy yo'nalishdagi loyihalar (10%) - ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari va turizm tarmoqlarini moliyalashtirish orqali bankning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishga qo'shgan hissasini ko'rsatadi. Ushbu balansli taqsimot kredit risklarini turli sohalar o'rtasida tarqatish imkonini bergan va portfel barqarorligini mustahkamlagan.

Tarmoqlararo diversifikatsiya siyosati natijasida "Asaka" ATB nafaqat sanoatga, balki xizmatlar sektori va qishloq xo'jaligiga ham barqaror moliyaviy oqimni yo'naltirgan. Bu esa bankning risklarni muvozanatlashgan holda boshqarish strategiyasini amalda samarali qo'llayotganini tasdiqlaydi.

2-jadval.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

“Asaka” ATB aktivlar sifati va risk ko‘rsatkichlari (2020–2024-yillar)³

Ko‘rsatki chlar	2 020	2 021	2 022	2 023	2 024
Jami aktivlar (trln so‘mda)	2 9,8	3 3,9	3 9,6	4 5,5	5 1,2
Kredit portfeli ulushi (%)	8 4,6	8 5,1	8 5,7	8 6	8 5,9
Muammol i kreditlar ulushi (NPL, %)	5, 4	4, 9	4, 5	4, 2	3, 9
Milliy valyutadagi aktivlar ulushi (%)	4 5	4 9	5 2	5 4	5 6
Kapital yetarliligi koeffitsienti (CAR, %)	1 3,2	1 3,8	1 4,5	1 5,1	1 5,6
Risk darajasi indeksi (shartli birlikda)	1	0, 91	0, 86	0, 81	0, 76

2020–2024-yillar davomida “Asaka” ATB aktivlarining hajmi va sifati barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etdi. Bankning jami aktivlari besh yil ichida 29,8 trillion so‘mdan 51,2 trillion so‘mga yetgan. Shu bilan birga, kapital yetarliligi koeffitsienti (CAR) 13,2 foizdan 15,6 foizgacha oshib, xalqaro Basel III talablaridan yuqori darajada saqlangan.

³ <https://piamg.uz/uz/blog/show/analiz-bankovskogo-sektora-za-ii-kvartal-2022-goda>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

“Asaka” ATB aktivlar sifati bo‘yicha ko‘rsatkichlar 2020–2024-yillarda sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga ega bo‘ldi. Standart aktivlar hajmi 25,4 trillion so‘mdan 41,2 trillion so‘mgacha ko‘tarilib, 62 foizlik o‘sish qayd etildi. Bu, avvalo, kredit baholash tizimi va ichki risk-monitoring mexanizmlarining takomillashgani bilan izohlanadi.

Substandart aktivlar hajmi biroz oshgan bo‘lsa-da, ularning ulushi umumiy portfelda kamaygan. Bu bankning ehtiyotkor kredit siyosati yuritayotganini va riskli mijozlarga nisbatan differensial yondashuvni kuchaytirganini ko‘rsatadi. Qoniqarsiz aktivlar nisbatan barqaror bo‘lib, ularning umumiy ulushi 1 foizdan oshmagan.

Eng muhim jihatlardan biri shundaki, shubhali va umidsiz aktivlar hajmi yil sayin qisqarib borgan. 2020-yilda 252 mlrd so‘mni tashkil etgan shubhali kreditlar 2024-yilda 198 mlrd so‘mgacha kamaygan. Umidsiz kreditlar hajmi esa 175 mlrd so‘mdan 126 mlrd so‘mgacha tushib, qarzdorlikni undirish tizimining samaradorligi oshganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, “Asaka” ATB 2020–2024-yillar oralig‘ida:

- risk-menejment tizimini raqamli asosda takomillashtirgan;
- kredit portfelini diversifikatsiyalash orqali risklarni muvozanatlashtirgan;
- IFRS 9 xalqaro standartlariga asoslangan kredit sifatini baholash tizimini joriy etgan;
- muammoli kreditlarni erta aniqlash va qayta moliyalashtirish mexanizmlarini kuchaytirgan.

Natijada, bankning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, aktivlar sifati yaxshilangan, risk darajasi esa sezilarli darajada pasaygan. 2020–2024-yillar “Asaka” ATB uchun risklarni boshqarishning tizimli va samarali davri sifatida e‘tirof etilishi mumkin.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Asakabank ATBda risklarni boshqarish tizimi takomillashtirishga muhtoj. Kredit va likvidlik risklarini kamaytirish uchun Basel III standartlariga mos kapital siyosati, Value-at-Risk modeli va stress-test usullarini joriy etish muhim.

Risklarni boshqarishning raqamli modeli - bu bank faoliyatining xavfsizligi, shaffofligi va foydaliligini ta‘minlaydigan asosiy mexanizm hisoblanadi. Shuningdek, Asakabank tajribasi asosida boshqa tijorat banklarida ham

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

integratsiyalashgan risk-menejment tizimini shakllantirish, sun'iy intellekt asosida risk prognozini ishlab chiqish hamda ichki nazoratni avtomatlashtirish istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Acharya, V., Pedersen, L. (2005). *Liquidity Risk and Expected Returns*. Journal of Finance.
2. Altman, E. (1968). *Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy*. Journal of Finance.
3. Basel Committee on Banking Supervision (2023). *Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms*.
4. Jumayev, N. (2021). *O'zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmlari*. TDIU ilmiy jurnali.
5. Maxmudova, M. (2020). *Asakabank ATB faoliyatida risklarni tahlil qilish va boshqarish usullari*.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni "2020-2025-yillarda bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida."
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). *Bank tizimining barqarorligi to'g'risidagi yillik hisobot*.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA GO'SHT ISHLAB CHIQRISHNI SAMARADOR YO'LLARI

Eshqorayev Javohir

Termiz Davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,

Iqtisodiyot,

o'rmonchilik va veterinariya fakulteti Buxgalteriya hisobi va audit

yo'nalishi talabasi

eshqorayevjavohir@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida go'sht ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ekologik, iqtisodiy va innovatsion yo'llari tahlil etiladi. Go'sht yetishtirish qishloq xo'jaligi tarmoqlari ichida eng ko'p resurs sarflaydigan va muhitga ta'sir ko'rsatuvchi jarayonlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, go'sht ishlab chiqarishni ekologik talablarga moslashtirish, resurslardan tejab-tergab foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, hayvonlarni tabiiy sharoitlarga yaqin muhitda boqish va energiyaning qayta tiklanuvchi manbalaridan foydalanish kabi yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada zamonaviy texnologiyalar, "aqli chorvachilik" usullari hamda biologik tarmoqlarda integratsiyalashgan boshqaruv (IFM) tizimining go'sht ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Olingan natijalar yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish chorvachilikda barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror chorvachilik, go'sht ishlab chiqarish, ekologik samaradorlik, resurslarni tejash, qayta tiklanuvchi energiya, organik chorvachilik, aqli qishloq xo'jaligi, IFM tizimi.

Yashil iqtisodiyot - bu tabiiy resurslardan samarali foydalanish, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Yashil iqtisodiyot ekologik xavf-xatarlarga qarshi faoliyat yuritishda va atrof-muhitni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Yashil iqtisodiyotga o'tish dunyo miqyosida iqlim o'zgarishlarini kamaytirishga, ekologik tizimlarni mustahkamlashga va resurslarni tejashga yordam beradi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

Go'sht ishlab chiqarish qishloq xo'jaligi sohasida eng katta resurslarni sarflaydigan tarmoqlardan biridir. Bu tarmoq energiya, suv va yer resurslarini ko'p ishlatadi va chiqindilarni yaratadi. Go'sht ishlab chiqarishning ekologik ta'siri nafaqat global miqyosda, balki milliy darajada ham seziladi. Go'sht ishlab chiqarishning ekologiyaga ta'siri albatta resurslar sarfiga bo'g'liq. Go'sht yetishtirishda quyidagi asosiy resurslar mavjud:

- Yer resurslari: Dunyoda **60% yer maydoni** global chorvachilik faoliyati tomonidan ishlatiladi (FAO, 2009). Bu yerning ko'p qismi hayvonlarni boqish va o'simliklar uchun yem yetishtirishga sarflanadi. Go'sht ishlab chiqarish uchun katta maydonlarni ajratish talab etiladi. Oziq-ovqat sifatida yem ishlab chiqarish, o'rmonlarni kesish, va chorvachilik uchun erlar ajratish, qishloq xo'jaligini kengaytirish natijasida ekosistemalar buziladi va biodiversitetning kamayishiga olib keladi.

- Suv resurslari: Go'sht ishlab chiqarish juda katta miqdorda suv talab qiladi. Masalan, Global suvning 8% chorvachilik sektori tomonidan sarflanadi (FAO, 2018). 1 kg go'sht ishlab chiqarish uchun o'rtacha 15,000 litrgacha suv kerak bo'ladi (Allcott et al., 2010). Bu ozuqalar yetishtirish, hayvonlarni boqish va ishlab chiqarish jarayonida sarflanadi. Suvning 90% sut va go'shtni ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan o'simliklarni etishtirishga ketadi, ya'ni chorvachilikda ishlab chiqarishning har bir bosqichi suvga bo'lgan ehtiyojni oshiradi.

- Suvning ko'p ishlatilishi, asosan, yem ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladi. Bu resursning yo'qolishi va ifloslanishi suv manbalarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

- Energiya sarfi: Go'sht ishlab chiqarish, ayniqsa, yirik korxonalarda, yuqori darajadagi energiya sarfini talab qiladi. Bu energiyaning ko'pi ko'mirdan olingan elektr energiyasi yoki boshqa tabiiy resurslardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu o'z navbatida issiqxona gazlarining chiqarilishiga olib keladi.

Chorvachilik sektori global issiqxona gazlari chiqindilarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Global GHG chiqindilarining 14.5% chorvachilikdan keladi (FAO, 2013). Bu soha, ayniqsa, metan (CH₄) gazining chiqarilishida katta rol o'ynaydi. Go'sht yetishtirish sanoati tabiatga quyidagi zararli gazlar chiqaradi:

- **Metan gazining chiqarilishi:** Metan – bu go'sht sanoatining eng katta iqlim o'zgarishiga ta'sir qiluvchi gazlardan biridir. Metan gazining issiqxona effektini

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

kuchaytirishdagi roli karbon dioksidga nisbatan 25 baravarga ko‘proq. Hayvonlarning oshqozonida va ularning shikastlanishida metan gazining chiqarilishi kuzatiladi.

- **Karbon dioksid (CO₂):** Go‘sh t sanoati ham karbon dioksid chiqindilarini yaratadi, ayniqsa, go‘shni tashish va qayta ishlash jarayonlarida. Karbon dioksidning chiqarilishi, ayniqsa, yirik korxonalarda va transport tizimlarida ko‘payadi.

- **Nitroz oksidlar (N₂O):** Go‘sh t sanoati boshqa issiqxona gazlarini ham chiqaradi, jumladan, nitroz oksidlar. Bu gazlar asosan o‘simliklarning o‘g‘itlanishi va hayvonlarning chiqindilari orqali havoga chiqariladi.

Yashil iqtisodiyotga moslashtirish go‘sh t ishlab chiqarish jarayonini ekologik jihatdan samarali, ijtimoiy adolatli va iqtisodiy barqaror qilishni anglatadi. Bunday usullar resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish uchun muhim ahamiyatga ega. Yashil iqtisodiyotga mos go‘sh t ishlab chiqarish usullari quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- **Organik go‘sh t ishlab chiqarish:** Organik go‘sh t ishlab chiqarish, kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlar ishlatilmasdan amalga oshiriladi. Bu usul yer va suv resurslarini tejashga yordam beradi va biologik xilma-xillikni saqlaydi. Organik go‘sh t ishlab chiqarish, shuningdek, hayvonlarni tabiiy oziqlantirish va tabiiy yashash sharoitlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan.

- **Hayvonlarni yaxshilangan sharoitlarda boqish (Free-range farming):** Yashil iqtisodiyotga mos keladigan go‘sh t ishlab chiqarish metodlaridan biri bu hayvonlarni keng ochiq maydonlarda boqishdir. Bu usul hayvonlarning tabiiy yashash muhitiga yaqinroq bo‘lishini ta‘minlaydi va ularning stress darajasini kamaytiradi, shuningdek, oziq-ovqatni tabiiy yo‘l bilan olishlariga imkon yaratadi. Bunday tizim ekologik jihatdan samarali, chunki hayvonlar uchun tabiiy muhit yaratiladi va o‘g‘it sifatida foydalaniladigan hayvonlarning axlati o‘z vaqtida qayta ishlanadi.

- **Aqlli qishloq xo‘jaligi (Smart agriculture):** Aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalari, jumladan, sensorlar va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida go‘sh t ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish mumkin. Bu texnologiyalar hayvonlarning oziqlanishi va salomatligini yaxshilash, shuningdek, resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Yashil iqtisodiyotga mos go‘sh t ishlab chiqarish tizimlari energiyani tejashga qaratilgan. Bu usullarda quyosh energiyasi, shamol energiyasi yoki boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish orqali go‘sh t ishlab chiqarish jarayonining energiya sarfini kamaytirish mumkin. Go‘sh t ishlab chiqarish jarayonida

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

katta miqdorda suv ishlatiladi, shuning uchun suvni tejash muhim ahamiyatga ega. Ekologik toza go'sht ishlab chiqarish usullari, masalan, suvni qayta ishlash tizimlarini o'rnatish yoki o'simlik asosli yemlarni qo'llash orqali suv resurslarini tejashga yordam beradi. Go'sht ishlab chiqarishda hosil bo'lgan chiqindilarni (masalan, hayvonlarning qoldiqlari, axlat va boshqa chiqindilar) qayta ishlash va ularni biogaz ishlab chiqarish, o'g'it yoki boshqa foydali mahsulotlarga aylantirish ekologik jihatdan samarali bo'lishi mumkin. Shuningdek, go'sht ishlab chiqarishda chiqindilarni kamaytirish va samarali boshqarish tizimlarini joriy etish zarur.

Go'sht yetishtirishni ekologiyaga zararli tasirini kamaytirish uchun quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish zarir hisoblanmoqda:

- Issiqxona gazlarini kamaytirish: Yashil iqtisodiyotga mos go'sht ishlab chiqarish metodlari, ayniqsa, metan gazining chiqarilishini kamaytirishga qaratilgan. Misol uchun, hayvonlarning yemini optimallashtirish, ayniqsa, o'simliklarga boy yemlar va uglevodlar yordamida ularning ovqatlanishiga yordam berish orqali metan gazini chiqarishni kamaytirish mumkin. Bunda seleksiya va genetik modifikatsiyalar orqali hayvonlarning gaz chiqarishini pasaytirish ham qo'llaniladi.

- Yashil energetika manbalaridan foydalanish: Yashil iqtisodiyotga mos keladigan go'sht ishlab chiqarish tizimlarida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, masalan, quyosh yoki shamol energiyasidan foydalanish mumkin. Bu jarayonni energiya sarfini kamaytirishga va go'sht ishlab chiqarishning karbon izini pasaytirishga yordam beradi.

- Iqlimga moslashuv: Yashil iqtisodiyotga mos go'sht ishlab chiqarish tizimlari iqlim o'zgarishiga moslashishga yordam beradigan strategiyalarni o'z ichiga oladi. Masalan, hayvonlar uchun maxsus muhitlar yaratish, iqlim o'zgarishiga chidamli yangi go'sht turlarini ishlab chiqish va boshqalar.

- Aholi o'sishiga moslashish: Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida go'sht ishlab chiqarish sohasida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va aholi o'sishiga moslashtirish zarur. Bu nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki qishloq xo'jaligi va go'sht ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini saqlashni ta'minlashni anglatadi.

- Ekoturizm va go'sht ishlab chiqarish integratsiyasi: Yashil iqtisodiyotga o'tishda go'sht ishlab chiqarish va ekoturizmni birlashtirish orqali barqaror turizmni rivojlantirish mumkin. Bu orqali qishloq aholisi uchun yangi ish o'rinlari yaratiladi va atrof-muhitni saqlashda katta yordam beriladi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

Chorvachilik sektori, ayniqsa, hayvonlarni boqish, sog'ish, va ularning salomatligini boshqarish bilan bog'liq jarayonlarda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati oshib bormoqda. Yangi texnologiyalar chorvachilikni yanada samarali, ekologik toza va barqaror qilish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu texnologiyalar chorvachilikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslarni tejash, hayvonlarning salomatligini yaxshilash va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish uchun muhimdir.

Bunday zamonaviy texnologiyalardan biri **Biologik tarmoqlarda integratsiyalashgan boshqaruv tizimidir (IFM - Integrated Farm Management)**

Biologik tarmoqlarda integratsiyalashgan boshqaruv (IFM) - bu qishloq xo'jaligi va chorvachilikni ekologik barqaror, iqtisodiy samarali va ijtimoiy jihatdan adolatli boshqarish usulidir. IFM metodologiyasi resurslardan samarali foydalanishni, tabiatni himoya qilishni va ekotizimlarning barqarorligini ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu yondashuvda yer, suv, havo, o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar kabi biotik va abiotik omillar bir butun sifatida ko'riladi va ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar boshqariladi.

IFM asosan ikki yo'nalishda rivojlanadi:

1. **Qishloq xo'jaligi va chorvachilikni birlashtirish:** Bu yerda qishloq xo'jaligi, chorvachilik va o'simliklarni yetishtirish bir butun tizim sifatida boshqariladi, ularning o'zaro ta'siri samarali boshqariladi.

2. **Ekologik barqarorlik:** Biologik tarmoqlarda IFM, shuningdek, qishloq xo'jalik faoliyatining ekologik ta'sirini kamaytirishga qaratilgan. Bu yondashuv atrof-muhitga minimal zarar yetkazish va tabiat resurslarini tejashga intiladi.

IFM ning Asosiy Tamoyillari:

1. **Biologik xilma-xillikni saqlash:** IFM metodologiyasi biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan. Bunda o'simlik va hayvonlar turlarining xilma-xilligi barqaror qishloq xo'jaligi tizimining asosiy elementlaridan biri sifatida qaraladi. Tabiiy ekosistemalarning saqlanishi va biologik tarmoqlarning barqaror rivojlanishi maqsadida xilma-xillikni saqlash, agroekosistemalarni yaxshilash va qishloq xo'jaligi faoliyatining tabiatga ta'sirini kamaytirish zarur.

2. **Resurslardan samarali foydalanish:** IFM strategiyasi resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan. Bu yer, suv, energiya va o'g'itlar kabi resurslarni tejashga yordam beradi. Yerning unumdorligini oshirish, suv manbalarini tejash va energiya sarfini kamaytirish IFM ning asosiy maqsadlaridan biridir.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

3. **Barqaror ishlab chiqarish:** IFM doirasida qishloq xo'jaligi va chorvachilikning barqaror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun ekologik toza va iqtisodiy jihatdan samarali usullarni joriy qilish zarur. Bu usullar o'z ichiga agroekologik yondashuvni, organik dehqonchilikni, minimal kimyoviy moddalar ishlatishni va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni oladi.

4. **Resurslar va chiqindilarni boshqarish:** IFM metodologiyasi chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashni ham ta'minlaydi. O'simliklar va hayvonlar qoldiqlarini qayta ishlash, kompostlash yoki biogaz ishlab chiqarish orqali chiqindilarni samarali boshqarish, ularni qayta ishlash va resurs sifatida foydalanish mumkin.

IFM ning Foydalari:

1. **Ekologik barqarorlikni ta'minlash:** IFM metodologiyasi ekologik barqarorlikni oshiradi, tabiat resurslarini tejaydi va ularning optimal ishlatilishini ta'minlaydi. Bu orqali biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy ekosistemalarni qo'llab-quvvatlash mumkin.

2. **Iqtisodiy samaradorlik:** IFM ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi, chiqindilarni kamaytiradi va resurslarni samarali boshqaradi. Bu nafaqat atrof-muhitni himoya qilishga yordam beradi, balki fermerlarga iqtisodiy jihatdan foydali va barqaror tizimlarni taqdim etadi.

3. **Qishloq xo'jaligida diversifikatsiya:** IFM turli o'simliklar va hayvonlar turlarini o'z ichiga olgan diversifikatsiya usulini qo'llaydi. Bu qishloq xo'jaligi tizimini barqarorlashtiradi, bozordagi xavflarga qarshi turishni kuchaytiradi va farmatsevtik resurslarni kamaytiradi.

4. **Suv va energiya sarfini kamaytirish:** IFM energiya va suv resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan. Suvni tejash va energiya samaradorligini oshirish uchun ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali yashil qishloq xo'jaligiga erishish mumkin.

5. **Iqlim o'zgarishiga moslashuv:** IFM qishloq xo'jaligi tizimlarini iqlim o'zgarishiga moslashtirishga yordam beradi. Bu esa qishloq xo'jaligi tizimlarini tabiiy ofatlarga chidamli qilish va issiqxona gazlarining chiqarilishini kamaytirishga yordam beradi.

IFM ning Tətbiq Etish Yondashuvlari:

1. **Agroekologik yondashuv:** IFM agroekologik yondashuvga asoslanadi. Bu yondashuvda biologik va ekologik omillarni hisobga olish orqali, qishloq xo'jaligi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

tizimi tabiiy ekosistemalar bilan uyg'unlashtiriladi. Agroekologiya esa resurslarni tejash, o'simliklar va hayvonlar xilma-xilligini saqlash hamda ekosistema xizmatlarini kuchaytirishga yordam beradi.

2. **Mahalliy bilimlarni qo'llash:** IFM metodologiyasida mahalliy bilim va tajribalarni qo'llash, ularning iqlim va geografik sharoitlarga moslashgan usullarini joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Mahalliy aholi va fermerlarning tajribasi va bilimlarini joriy etish natijasida qishloq xo'jaligini yanada barqaror qilish mumkin.

3. **Innovatsion texnologiyalarni qo'llash:** IFM, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalar biologik tarmoqlarda samaradorlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya sarfini kamaytirishga yordam beradi.

4. **Tarmoq va kooperatsiya:** IFM bir nechta fermerlar va ishlab chiqaruvchilarni o'zaro hamkorlik qilishga undaydi. Tarmoq va kooperatsiya orqali resurslarni optimallashtirish, tajriba almashish va hamkorlikda ishlab chiqarish tizimlarini yaxshilash mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki Go'sht ishlab chiqarishning yashil iqtisodiyotga moslashtirilgan usullari ekologik toza, barqaror va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda samarali bo'lishi mumkin. Resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, energiya va suvni samarali boshqarish, issiqxona gazlarini kamaytirish, shuningdek, hayvonlarni tabiiy sharoitda boqish, ekologik jihatdan toza go'sht ishlab chiqarishga imkon beradi. Bu metodlar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va jamiyatni yashil iqtisodiyotga o'tishda yuksak natijalarga erishishga yordam beradi. Biologik tarmoqlarda integratsiyalashgan boshqaruv (IFM) — bu ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim yondashuvdir. IFM qishloq xo'jaligi va chorvachilikni birlashtirish, resurslarni samarali boshqarish, chiqindilarni kamaytirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Bu tizimning amalga oshirilishi qishloq xo'jaligida barqarorlikni ta'minlash va ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. FAO (Food and Agriculture Organization). (2013). *Tackling Climate Change Through Livestock: A Global Assessment of Emissions and Mitigation Opportunities*. Rome: FAO.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

2. Steinfeld, H., Gerber, P., Wassenaar, T., Castel, V., Rosales, M., & de Haan, C. (2006). *Livestock's Long Shadow: Environmental Issues and Options*. Rome: FAO.
3. Lemaire, G., & Chabrières, D. (2016). *Sustainable livestock production: Enhancing agricultural productivity and environmental sustainability*. *Agriculture, Ecosystems & Environment*, 221, 123–129.
4. UNEP (United Nations Environment Programme). (2012). *The Green Economy and the Livestock Sector: Reducing Environmental Impact While Promoting Sustainability*.
5. Allcott, H., Diamond, R., & Hanemann, W. M. (2010). *The Economics of the Environment and Natural Resources*. Cambridge University Press.
- 6.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

XORAZM VILOYATI LABORATORIYA XIZMATINING FAOLIYATINI SAMARADORLIK NUQTAI NAZARIDAN TAHLIL QILISH

Nurmetova Yulduz Baltayevna

Urganch davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm viloyatidagi laboratoriya-diaagnostika xizmatining faoliyati iqtisodiy va tashkiliy samaradorlik nuqtai nazaridan ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — laboratoriya tizimining mavjud holatini baholash, resurslardan foydalanish darajasini aniqlash hamda samaradorlikni oshirish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tahlillar natijasida laboratoriya xizmatlarida resurslardan foydalanishning yetarlicha optimallashtirilmaganligi, reaktiv va sarf materiallarning markazlashtirilmagan xaridi, kadrlar malakasining pastligi, ichki sifat nazorati tizimining formal xususiyatga ega ekanligi aniqlangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, laboratoriya xarajatlari sog‘liqni saqlash muassasalari byudjetining o‘rtacha 18–22 foizini tashkil etadi, qayta o‘tkazilgan tahlillar ulushi esa 6–8 foizni tashkil etmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida laboratoriya xizmatining samaradorligini oshirish uchun markazlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy etish, laboratoriya axborot tizimlarini yagona raqamli platforma asosida integratsiyalash, kadrlar malakasini oshirish hamda iqtisodiy resurslarni oqilona taqsimlash zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: laboratoriya-diaagnostika xizmati, samaradorlik, sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti, raqamlashtirish, Xorazm viloyati, boshqaruv, sifat nazorati.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda diaagnostika jarayonlarini raqamlashtirish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda laboratoriya-diaagnostika xizmati sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismi sifatida alohida o‘rin tutadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, klinik qarorlarning 60–70 foizi laboratoriya tahlillarining natijalariga asoslanadi. Shu bois laboratoriya xizmatining samaradorligini oshirish nafaqat tibbiy, balki iqtisodiy va tashkiliy jihatdan ham dolzarb masalaga aylangan.

Hozirgi davrda O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida, jumladan Xorazm viloyatida ham, laboratoriya xizmatlari faoliyati jadal rivojlanmoqda. So‘nggi yillarda zamonaviy

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

laboratoriya texnologiyalari, avtomatlashtirilgan analizatorlar, hamda laboratoriya axborot tizimlari (LIS) bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Biroq mavjud salohiyatdan foydalanish samaradorligi yetarli darajada emas.

Xorazm viloyati laboratoriya xizmatining holati tahlil qilinganda, bir qator tizimli muammolar aniqlanmoqda:

- laboratoriyalar o'rtasida bir xil turdagi tahlillarni takror bajarish holatlari keng tarqalgan;
- reaktiv va sarf materiallarni markazlashtirilmagan holda xarid qilish iqtisodiy samarasizlikni keltirib chiqarmoqda;
- ichki sifat nazorati tizimi ko'p hollarda faqat formal xarakterga ega;
- malakali kadrlar yetishmovchiligi kuzatilmoqda, ayniqsa tuman miqyosidagi laboratoriyalarda.

Viloyat miqyosidagi iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, laboratoriya xizmatlariga sarflanayotgan xarajatlar sog'liqni saqlash muassasalari umumiy byudjetining o'rtacha 18–22 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, texnik yoki tashkiliy xatolar natijasida tahlillarni qayta o'tkazish ko'rsatkichi 6–8 foiz atrofida. Bu esa resurslardan foydalanishda samaradorlik yetarli emasligini bildiradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, laboratoriya xizmatlarini markazlashtirish va raqamlashtirish yo'li bilan ularning tashkiliy va iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin. Xususan, laboratoriya axborot tizimlarining yagona bazasini yaratish, logistika zanjirini optimallashtirish va sifat nazoratining elektron modellarini joriy etish orqali xarajatlarni 15–25 foizgacha kamaytirish, xatoliklarni esa 50 foizdan ortiq qisqartirish mumkin.

Shu bois, Xorazm viloyati laboratoriya xizmatining faoliyatini samaradorlik nuqtai nazaridan ilmiy asosda tahlil qilish, mavjud iqtisodiy, tashkiliy va texnologik muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyatidagi laboratoriya-diaagnostika xizmatining tashkiliy, iqtisodiy va texnologik samaradorligini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda resurslardan oqilona foydalanish va xizmat sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsad laboratoriya tizimini zamonaviy boshqaruv tamoyillari, raqamlashtirish jarayonlari va sifat nazorati mexanizmlari asosida baholashni nazarda tutadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Xorazm viloyati laboratoriya xizmatining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud tuzilma, moddiy-texnik baza, kadrlar salohiyati va boshqaruv tizimini baholash; laboratoriya faoliyatining iqtisodiy samaradorligini o'rganish — tahlil natijalariga sarflanayotgan moddiy, texnik va mehnat resurslarining hajmini, ulardan foydalanish darajasini aniqlash; laboratoriya xizmatlari sifatini va ichki nazorat mexanizmlarini baholash, xususan, tahlillarni qayta o'tkazish ko'rsatkichlari, xatolik manbalari va ularning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish; laboratoriya xizmatini markazlashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlarini o'rganish, ya'ni yagona axborot tizimini yaratish orqali boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash; ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, jumladan laboratoriya tarmog'ini qayta tashkil etishning iqtisodiy modelini taklif etish, resurslardan samarali foydalanish mexanizmini ishlab chiqish, kadrlar salohiyatini oshirishning tashkiliy yo'llarini belgilash, laboratoriya axborot tizimlarini integratsiyalash orqali sifat nazoratini kuchaytirish; laboratoriya xizmatining umumiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, jumladan iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti, laboratoriya jarayonlari bajarilishining vaqt ko'rsatkichi, sifat va aniqlik darajasini ifodalovchi integrativ indikatorlarni shakllantirish.

Ushbu maqsad va vazifalar laboratoriya-diagnostika xizmatining faoliyatini kompleks tahlil qilish, uning moliyaviy, tashkiliy va texnologik jihatlarini uyg'un holda o'rganish hamda Xorazm viloyati sharoitida amaliy natijalar beruvchi takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Materiallar va tadqiqot metodlari. Tadqiqotning materiallari sifatida Xorazm viloyatidagi turli darajadagi laboratoriya-diagnostika muassasalari — viloyat diagnostika markazi, shahar va tuman tibbiyot birlashmalari laboratoriyalari, shuningdek ayrim xususiy tibbiyot laboratoriyalarining faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlar, moliyaviy hisobotlar va ichki nazorat hujjatlari olindi. 2022–2024-yillar davomida 40 dan ortiq laboratoriya bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar sog'liqni saqlash boshqarmasi hisobotlari, laboratoriya rahbarlarining yillik tahlil natijalari, shuningdek laboratoriya sifatini baholovchi ichki audit hujjatlaridan iborat. Shuningdek, laboratoriya xodimlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazilib, xizmat sifati, ish hajmi, uskunalardan foydalanish darajasi va mehnat sharoitlari yuzasidan fikrlar to'plandi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

Tadqiqot metodologik jihatdan kompleks yondashuvga asoslandi. Tahlil jarayonida iqtisodiy, statistik, analitik va tizimli yondashuv usullari qo'llanildi. Iqtisodiy tahlil usuli yordamida laboratoriya xizmatlariga ajratilgan mablag'larning sarflanish tuzilmasi, moddiy-texnik bazaning foydalanish darajasi hamda xarajatlarning natijaga ta'siri o'rganildi. Statistik tahlil metodlari orqali laboratoriya faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari, tahlillar soni, qayta o'tkazilgan tahlillar ulushi, o'rtacha xizmat ko'rsatish vaqti hamda laboratoriya xodimlari yuklamasi aniqlanib, ular o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion tahlil yordamida baholandi. Analitik yondashuv laboratoriya tizimidagi tashkiliy va iqtisodiy omillarni aniqlash, ularning o'zaro ta'sir mexanizmini ochib berish imkonini berdi. Shuningdek, xorijiy tajriba bilan taqqoslovchi tahlil o'tkazilib, O'zbekiston laboratoriya tizimi rivojlanishida qo'llash mumkin bo'lgan ilg'or yondashuvlar aniqlab chiqildi.

Tadqiqotda "samaradorlik koeffitsiyenti" va "iqtisodiy foydalilik indeksi" kabi integrallashgan ko'rsatkichlardan foydalanildi, ular laboratoriya xizmatining moliyaviy va tashkiliy samaradorligini umumlashtirib ifodalaydi.

Natijalar "Microsoft Excel 2021" va "SPSS Statistics 25.0" dasturlari yordamida qayta ishlanib, grafik va jadval ko'rinishida tahlil qilindi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida laboratoriya faoliyatining tashkiliy modeli va boshqaruv tizimi o'rganilib, amaldagi me'yoriy hujjatlar — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining laboratoriya xizmatiga oid qaror va buyruqlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliy ahamiyatini ta'minladi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari Xorazm viloyatidagi laboratoriya-diagnostika xizmatining tashkiliy, iqtisodiy va texnologik samaradorligini baholash orqali bir qator muhim xulosalarga olib keldi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatdagi laboratoriya tizimi so'nggi yillarda texnik modernizatsiya yo'lidan ketayotgan bo'lsa-da, mavjud resurslardan foydalanish darajasi yetarlicha samarali emas. Laboratoriyalar o'rtasida moddiy-texnik imkoniyatlar, kadrlar malakasi va axborot tizimlariga kirish imkoniyati jihatidan sezilarli tafovutlar mavjud. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, laboratoriya faoliyatining umumiy xarajatlar tuzilmasida reagentlar, sarf materiallari va texnik xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan mablag'lar o'rtacha 58 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish hajmi bilan bog'liq xarajatlar 25 foiz atrofida, ma'muriy va energetik xarajatlar esa 17 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar resurslardan foydalanishda markazlashmagan xarid

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

siyosati va logistika tizimining yetarli darajada optimallashtirilmaganligidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida 40 ta laboratoriya ma'lumotlari asosida o'tkazilgan iqtisodiy tahlil shuni ko'rsatdiki, tahlillarni qayta o'tkazish ko'rsatkichi o'rtacha 7,2 foizni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich laboratoriya ish jarayonlarida sifat nazorati tizimining to'liq ishlamasligi, ayrim hollarda test namunalari tayyorlashdagi kamchiliklar hamda ma'lumotlarni kiritishdagi inson omili bilan bog'liq xatolar mavjudligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, laboratoriyalarning 65 foizida ichki audit natijalari muntazam ravishda tahlil qilinmaydi yoki faqat hisobot uchun rasmiy shaklda yuritiladi.

